XALQ DEPUTATLARI DAVLATOBOD TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 3-dekabr VII-12-66-6-219-K/25 Davlatobod tumani

Mahalliy budjet qo‘shimcha manbalaridan foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasi O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 126-moddasiga asosan.

Q A R O R Q I L A D I:

1. “Namangan shahar budjeti 2025-yil uchinchi chorak daromad rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish haqida”gi tuman hokimligi takliflarini inobatga olib, shahar mahalliy budjeti 2025-yil uchinchi chorak daromad rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan ilovaga muvofiq mablag‘lar ajratilsin.

2. Davlatobod tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Mamatqulov), xarajatlarni amalga oshirishga mas’ul tashkilot rahbarlari bilan birgalikda:

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi va tuman bo‘yicha G‘aznachilik xizmatiga taqdim etish;

ajratilgan mablag‘lardan to‘g‘ri, maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlash;

mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni shahar mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rsinlar.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Umarov) budjet xarajatlar rejasiga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish, tuman g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (I.Ataxanov) to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga

oshirish hamda mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

4. Tuman mahalliy budjet jarayonini ochiqligini ta’minlash maqsadida Namangan shahar mahalliy budjeti 2025-yil uchinchi chorak daromad rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yhati, shuningdek qurilish ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keyingi chorakning ikkinchi oyi 10 sanasiga qadar tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Mamatqulov, Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi zimmalariga yuklansin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **TADJIMIRZAYEV ANVAR ABDUVAXIDOVICH**

Xalq deputatlari Davlatobod tumani
Kengashining
2025-yil 3-dekabrdagi
VII-12-66-6-219-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Shahar mahalliy budjet daromadlarining 2025 yil uchinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘lar ajratish bo‘yicha tadbirlar

ming so‘mda

T/r	Tashkilot nomi	Xarajatlar mazmuni	Ajratilgan mablag‘
1	**Davlatobod tuman** hokimligiga	**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-apreldagi PQ-5089-son qaroriga muvofiq, Davlatobod tuman hokimligi binosini xavfsizligini ta’minlashda qo‘riqlash bo‘limi xodimlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlari bilan bog‘liq xarajatlar uchun**	60 000
2	**Davlatobod tuman** hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-oktabrdagi PQ-3350-son qaroriga asosan 2018-2019-yil dasturlar doirasida Namangan shahrida qurilgan uy-joylardan 10 ta xonadon uchun boshlang‘ich badal va ipoteka krediti mablag‘laridan bo‘lgan qarzdorligi uchun	935 000
3	**Davlatobod tuman** hokimligiga	Davlatobod tuman hududida 2 ta yangi mahalla fuqarolar yig‘ini qurilishi bilan bog‘liq xarajatlar uchun	500 000
4	**Davlatobod tuman** hokimligiga	Tuman hokimligi xizmat avtomobillarini yoqilg‘idan bo‘lgan qarzdorlikni qoplash maqsadida	25 000
5	**Davlatobod tuman** hokimligiga	“1-oktabr Ustoz va murabbiylar kuni” bayram tadbiri xarajatlari uchun	45 000
6	**Davlatobod tuman** iqtisodiyot va moliya bo‘limiga	Davlatobod tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi hodimlarini uchun ustama xarajatlari uchun	119 500
7	**Davlatobod tuman** hokimligiga	Tuman hokimligining 2025-yil davomida foydalangan elektr energiyasidan yuzaga kelgan qarzdorlik xarajatlari uchun	45 000
8	**Xalq deputatlari Davlatobod tuman Kengashi**	Xalq deputatlari Davlatobod tuman Kengashi hodimlarini uchun ustama xarajatlari uchun	20 500
	Jami		**1 750 000**